
Sodir etilgan jinoyatlar mahallalarda tanqidiy muhokama qilindi

Jinoyatchilik va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish hamda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish maqsadida "Payshanba – profilaktika kuni" munosabati bilan shahar hokimi Vosiljon Nazarov 1-sektor hududidagi "Al-Xorazmiy" va "Besh bola" mahalla fuqarolar yig'inlarida yig'ilish o'tkazdi. Unda mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalari rahbarlari ham aholi vakillari ishtirok etishdi.

Shahar hokimi tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda jamoatchilik nazorati muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Tadbirlarda mahalla fuqarolar yig'inlarida joriy yilning o'tgan davri mobaynida sodir etilgan jinoyatchilik va qonun buzilishlar tahlil qilindi. Targ'ibot va tashviqot tadbirlarining o'tkazilishi, jamoatchilik nazorati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar esa tanqidiy muhokama qilindi.

Ishtirokchilar tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, takliflar qabul qilindi.

Mahalla xodimlari va profilaktika inspektorlariga targ'ibot tadbirlarini olib borish bo'yicha topshiriqlar berildi. Tadbir so'ngida turli jinoyatlar va huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va kelgusidagi vazifalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

2022-06-13 09:48:20